



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

O‘zbekiston Ziyolilar –Kino Sohasida

Boqiev Bahrom O‘ktamovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi, Prof.
v/b.

Ma’lumki, mustaqillik yillarida o‘zbek ijodiy ziyolilarining madaniy sohalarda ham faolyatlarini muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Dunyoda turli xalq va elatlar bo‘lib, ular bugungi kunda o‘z milliy an’analari, san’ati va kino hamda kino san’ati sohasini o‘rganish, ularni targ‘ib qilish, an’analarini asrab-avaylash kabi ijodiy hamkorlik, xalqaro madaniy aloqalarni tashkil etish ishlarini amalga oshirmoqda.

Jumladan, respublikamizda davlat rahbari tomonidan kino sohasiga bo‘lgan e’tibor va maqsad qilib qo‘yilayotgan yuksak talablar ham zamonaviy milliy kino san’ati tarixini o‘rganish, tegishli xulosalar chiqarishga imkon yaratmoqda. Kinematografiyaning paydo bo‘lishi bilan filmlar sifati, badiiyligi, tomoshabin va mutaxassislar orasidagi e’tibor va e’tirofini xolis baholash ehtiyoji paydo bo‘ldi. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgach, o‘zbek filmlari turli xalqaro kinofestivallarda ishtirok etish imkoniga ega bo‘la boshladi.

Respublika kinostudiyalarida suratga olingan filmlar ko‘plab festivallarda ishtirok etib, salmoqli mukofotlarni qo‘lga kiritmoqda. Bu orqali xorijiy davlatlardagi kinotomoshibinlar o‘zbek xalqining an’analari, mustaqillik davrida erishgan yutuqlari hamda turmush tarzi bilan tanishishga muvaffaq bo‘ldi.

2017 yilga qadar respublika bo‘yicha “O‘zbekfilm” kinostudiyasi, “O‘zbekiston hujjatli va ilmiy-ommabop filmlar kinostudiyasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati, “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasi, “5-studiya” Yoshlar tajriba ijodiy uyushmasi kabi davlat studiyalari hamda “Qoraqalpoqkino” agentligi, Toshkent shahar va viloyat hududiy bo‘limlari mavjud bo‘lib, bulardan tashqari, kinematografiya sohasida 80 ga yaqin tashkilotlar, litsenziyasi bo‘lgan xususiy studiya va ijodiy jamoalar mavjud bo‘lib, shulardan 40 ga yaqini filmlar ishlab chiqarish bilan faol shug‘ullanib kelgan edi. Mustaqillik yillariga kelib filmlar badiiy saviyasini oshirishda yangi kinotexnologik jihozlar bilan ta’minlanganlik darajasi katta ahamiyat bera boshladi. Shu bois davlat tomonidan kino ishlab chiqarish korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ham alohida e’tibor qaratildi. Bu esa o‘z navbatida chet el kinokompaniyalarining O‘zbekiston Respublikasi hududida filmlar suratga olish jarayoniga qiziqishlarini uyg‘otdi. AQSh, Janubiy Koreya, Fransiya, Italiya, Xindiston, Rossiya, Germaniya, Isroil, Yaponiya singari davlat kinoijodkorlari mamlakatimizda o‘z filmlarini suratga oldi.

Mustaqillik yillarida respublika kinoijodkorlari tomonidan davr talablari va ruhiyatiga mos qator filmlar yaratishga katta e’tibor qaratildi[1]. Xususan, 2001-2004 yillar davomida “Chayongul”, “Oyijon”, “Alpomish”, “Baxt qadri”, “Dilhiroj”, “O‘rtoq Boykenjaev”, “Osmondagi bolalar-1”,

“Meshpolvon”, “Qor qo‘ynida lola”, “Yodgor”, “Notanish polvon”, “Tanka”, “Orzu ortida”, “Osmondagi bolalar-2”, “Dard”, “Dev bilan pakana”, “Afandi va Azroil” singari 17 ta badiiy film yaratilgan bo‘lsa[2], 2005-2006 yillar davomida: “Erkak”, “Qora yol”, “Xotira rashki”, “Devona”, “Mehmon”, “O‘yin”, “Ko‘rgilik”, “Kelgindi kuyov”, “Vasvasa”, “Tog‘da o‘tgan quvnoq yoz”, “Mergan melisa”, “Devona”, “Kelgindi kuyov”, “Katta oyi”, “Qasamyod”, “Chashma”, “Yo‘l bo‘lsin”, “Go‘zallik siri” to‘liq metrajli, “Gap”, “Hayvonot bog‘i”, “Robiya”, “Tabib”, “Qizcha va quyosh” singari qisqa metrajli filmlar yaratildi[3].

Yusuf Roziqov, Sobir Nazarmuhamedov, Zulfiqor Musoqov, Jahongir Qosimov, Bahodir Odilovlar avlodidan keyin o‘zbek milliy kinosiga kirib kelgan yosh ijodkorlar orasida Yolqin To‘ychiev yorqin iste‘dodi bilan nazarga tushdi. Uning ijodiy tarjimaiy holida so‘nggi besh-olti yil ichida e‘tiborga molik bir necha kinossenariy va badiiy filmlar paydo bo‘ldi.

Dunyodagi nufuzli kinofestival va kino mukofotlarda ham o‘zbek kino ijodkorlari muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu borada mashhur “Oskar” kinomukofotini alohida eslab o‘tish lozimdir. Xususan, 2019 yildan O‘zbekiston kinoijodkorlari ham ushbu mukofotga o‘z filmlarini taqdim etish imkoniga ega bo‘ldi. “Oskar” mukofotiga O‘zbekistondan taqdim etilgan birinchi asar yosh, iqtidorli kinorejessyor Umid Hamdamov tomonidan “O‘zbekfilm” kinostudiyasida suratga olingan “Issiq non” filmi bo‘ldi[4].

O‘zbekiston xalqaro kinofestivallarga ham mezbonlik qilgan. Jumladan, O‘zbekistonning atoqli siyosiy arbobi Sharof Rashidov tashabbusi bilan tashkillashtirilgan “Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi xalqaro kinofestivali” uzoq yillar davomida nafaqat O‘zbekiston va o‘zbekistonliklar uchun, balki dunyo kino san‘ati, madaniyati uchun muhim tadbirlardan biri bo‘lgan. Toshkent Xalqaro kinofestivali bugungi kungacha Jahon kino san‘ati rivojiga o‘ziga xos ulkan hissa qo‘shib kelmoqda. Ma‘lumki, Toshkentda 1968, 1976, 1978, 1980, 1982, yillardan hozirgacha “Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari Toshkent Xalqaro kinofestivali” bo‘lib kelmoqda. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi xalqaro kinofestivali deb nomlangan Toshkent kinofestivali 1968-1997 yillarda may oyi oxiri-iyun oyi boshida davlat kinematografiya qo‘mitasi va kinoarboblar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan. Mustaqillik yillarida Toshkent Xalqaro kinofestivali ikki marta: 1992 yil oktyabr, 1997 yil may oylarida o‘tkazilgan bo‘lib, orada katta tanafus bo‘lib, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tiklash va o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorini imzolaganidan keyin qarorga muvofiq, Toshkent xalqaro kinofestivali endilikda “Ipak yo‘li durdonasi” nomi bilan O‘zbekiston Kinematografiya agentligi tomonidan 2021 yildan boshlab har yili 28 sentyabr-3 oktyabr kunlari o‘tkaziladigan bo‘ldi. Mazkur kinofestival “Tinchlik, taraqqiyot va ma‘rifat” shiori ostida bo‘lib o‘tgan bo‘lib, unga xorijdan jami 355 nafar ishtirokchi, shu jumladan, 55 nafar taniqli kinoyulduzlar taklif etildi. Festival doirasida mashhur kinomutaxassislar va rejissyorlar ishtirokida yosh kinoijodkorlar uchun mahorat darslari, ijodiy uchrashuvlar, kinotreninglar, davra suhbatlari, hududlarda kinoko‘rgazmalar, eng yaxshi milliy va xorijiy filmlar namoyishlari o‘tkazildi[5]. Xullas, kinofestival ishtirokchilari O‘zbekiston kino sanoati dunyodagi eng rivojlangan tarmoqlardan biriga aylanishi uchun barcha sa‘y-harakatlarni amalga oshirishga tayyor ekanliklarini bildirishdi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o‘rganish masalalari partiyaviylik, sinfiylik yondashuvlardan hukmron kommunistik mafkura ta‘siridan xalos etildi. Necha o‘n yillar davomida buzib ko‘rsatilgan yoki so‘z yuritilmay kelgan tarixiy voqealarni xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari asosida yoritilgan qator ilmiy asarlar, darsliklar va o‘quv adabiyotlari yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Тешабаев Д., Абул-Касимова А., Хайитматова С., Мирзамухамедова М.. Аннотированный каталог художественного кино Узбекистана 1925-2008. – Т.: Издательство журнала “San‘at”. 2009. ст. 239.
2. 2004 йил 16 мартдаги Президент Фармони ҳамда 17 мартдаги Вазирлар Маҳкамасининг 126-сон қарори.

3. Исҳоқов А. Кинематография тарихи – Тошкент, “Зилол булоқ” нашриёти. 2019 йил. 133-134-бетлар.
4. Исҳоқов А. Кинематография тарихи – Тошкент, “Зилол булоқ” нашриёти. 2019 йил. 330-бет.
5. Uktamovich B. B. The Impact of Uzbek Creative Intellectuals on Cultural Life in the Second Half of the XX Century. – 2023.
6. Uktamovich B. B. CONTRIBUTIONS OF CREATIVE INTELLECTUALS IN THE FIELD OF SCIENCE TO THE FIELD OF EDUCATION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 11. – С. 255-259.
7. Uktamovich B. B. Uzbek Creative Intelligence-History and Today //International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. – Т. 8. – №. 04. – С. 109-112.